



10-SINF

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



1-keys . “Ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar integralatsiyasi”



Vaziyat:

Yuqori sinf o‘quvchisi Anvar zamonaviy ilmiy-amaliy anjumanda: “Kelajakdagi O‘zbekiston taraqqiyoti ta’lim, ilmiy izlanishlar va sanoat innovatsiyalarining uzviy bog‘liqligiga tayanadi”, — degan g‘oyani tahlil qildi.



Savollar:

- Kelajakdagi O‘zbekiston taraqqiyotida ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalarning o‘rni qanday?
- Ilmiy kashfiyotlar va ilmiy kadrlarni tayyorlash davlatning xalqaro nufuzini qanday yuksaltiradi?
- Shaxsiy mas’uliyatingiz va kelajakdagi kasbiy faoliyatingiz mamlakat rivojiga qanday ta’sir qiladi?



Qiziqarli topshiriq

“Ilm-fan va innovatsiya — O‘zbekiston kelajagi” mavzusida qisqa tahliliy matn tayyorlang.





10-SINF

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



2-keys. “Barqaror rivojlanish va strategik maqsadlar”



Vaziyat:

Dilorom BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari va O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategik dasturlarini o‘rganib, mamlakatimizning kelajakdagi barqaror iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasini baholadi.



Savollar:

1

Barqaror rivojlanish va uzoq muddatli strategik rejalashtirish nega zarur?

2

Kelajakda kambag‘allikni qisqartirish, sifatli tibbiyot va ta‘limni ta‘minlashda yoshlar qanday o‘rin tutadi?

3

Siz o‘z kelajak rejalaringizni davlatimizning strategik maqsadlari bilan qanday bog‘laysiz?



Qiziqarli topshiriq:

O‘zbekistonning kelajakdagi barqaror rivojlanishiga oid 3 ta strategik taklifingizni yozib chiqing.

